
FARG'ONA VILOYATI HOKIMI GERMANIYALIK INVESTORLARNI QABUL QILDI

Farg'ona viloyati hokimi Shuhrat G'aniev Germaniyadagi DMK Baby kompaniyasining direktori janob Olivier J. Vavasseur hamda menejeri Dr.Vladimir Koconi qabul qildi.

Eslatib o'tamiz, davlatimiz rahbari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoevning Germaniyaga tashrifidan so'ng ko'plab xorijlik ishlab chiqaruvchilar O'zbekistonga qiziqish bildirgan edi. Ushbu tashrif ana shu muzokaralarning natijasi o'laroq qabul qilinadi.

Kompaniya Yevropada eng katta sut mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonaga bo'lib, Germaniyaning Bremen shahrida joylashgan. Uning mahsulotlari juda ko'p davlatlarga Humana brendi ostida tarqaladi. Janob Olivier O'zbekistonga bolalar ozuqasini tayyorlaydigan zavod qurish istagini bildirdi. Mahsulotga yaqin joy sifatida Farg'ona vodiysini tanlaganini ham aytib o'tar ekan, viloyatimizda yetishtiriladigan mahsulotlarning organik jihatdan tabiiy yetishtirilishini alohida ta'kidladi. SHuningdek, viloyat qancha hajmda mahsulot yetkazib bera olishiga qiziqdi.

Viloyat hokimi Shuhrat G'aniev mahsulot hajmida umuman muammo bo'lmasligini, chunki o'zimizda yetishtirilganidan tashqari, qo'shni davlatlar – Qirg'iziston va Tojikistonning yondosh viloyatlaridan ham biz meva sotib olishni boshlaganimizni bildirdi. SHuningdek, Farg'ona viloyati vodiyning markazi hisoblanishini aytdi va meva mahsulotlari Farg'ona viloyatida tamoman sof tabiiy yetishtirilishini, shuning uchun jahon bozorida Farg'ona brendi yuqori turishini bildirdi. Agar bu loyiha amalga oshsa, Farg'ona viloyatining Germaniya bilan ikkinchi qo'shma korxonasi bo'ladi.

Viloyat hokimi xorijlik investorlar uchun barcha amaliy yordam ko'rsatilishini aytdi.

– Bu Germaniyadan tashqaridagi birinchi zavodimiz bo'ladi, – deydi janob Olivier. – Viloyatingiz bilan 4 yo'nalishda ish olib bormoqchimiz. Ya'ni, bolalar ozuqalari uchun olma, shaftoli, olxo'ri, nok mevalarini qayta ishlab tayyor mahsulot ishlab chiqarmoqchimiz. Korxonaning imkoniyat, istiqbollari baholaydigan bo'lsak, bu zavod O'zbekiston uchun ham, Germaniya uchun ham katta voqea bo'ladi. SHuning uchun sharoit bilan yaxshi tanishish maqsadida keldik. Bir narsa quvonarliki, mahalliy aholi allaqachon mevalarni qayta ishlashni biladi va ishchi guruh komandasi bu yerda tayyor mahalliy tadbirkorlarning faoliyati rivojiga ham hissamizni qo'shamiz. Biznesning o'zi taraqqiyotga yo'l ochadi. Kompaniyamiz 100 dan ortiq davlatga mahsulotlarini taqdim etadi va 70 yillik tajribaga ega.

Germaniyalik mehmonlar va viloyat hokimi o'zaro esdalik sovg'alari almashdilar.

Farg'ona viloyati hokimligi matbuot xizmati

2019-04-01 21:14:29